

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Ro'zimboyeva Shahlo Komil qizi

*Xorazm viloyati Shovot tumani Komiljon Otaniyozov
nomidagi 39-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Annotatsiya: *Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, muammo, yechim, rivojlanish, psixologiya, masala, shakllanish, jarayon, maktab, faoliyat, ko'nikma*

KIRISH

Pedagogik psixologiyaning maqsadi, sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirishdir. Pedagogik psixologiya XIX-asrning 2-yarmida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari Pedagogik psixologiya rivojiga katta hissa qo'shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham turtki berdi. Bixevioristik (qarang Bixeviorizm) psixologiya yo'nalishi tarbiyachi va o'quvchiga tashqi muhitning ta'sirini Pedagogik psixologiya uchun asos qilib oladi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bog'liq.

Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi. Ta'lim psixologiyasi o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakte-ri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rganiladi. Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir. Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi - maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv materialini mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim xodimlari oldiga qo'yilgan vazifalardan biri har tomonlama yetuk, barkamol shaxsini tarbiyalash va ularga bilim berish asosida kasb-hunarga yo'naltirish

hamda mustaqil hayotga tayyorlashdir. Bunday mas'uliyatli vazifalarni bajarish uchun o'quvchi shaxsini har tomonlama chuqur o'rganish zarur. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, layoqati va boshqa individual sifatleri shakllanishining psixologik qonuniyatlarini bilishi hamda ulardan ta'lim jarayonini tashkil etishda to'g'ri foydalana olishi lozim. Bunda psixologik – pedagogik tashxis daftari yordam beradi, chunki mazkur daftar o'qituvchiga har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini, ko'nikma va malakalarini, qobiliyat va layoqatlarini aniqlash, uning rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda zarur hollarda oquvchiga korreksion yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Hozirgi davrdagi zamonaviy pedagogik psixologiyaga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, uning zahirida shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim yordamida shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash yotadi, shu bois pedagogik psixologiya bir necha turlarga ajratiladi.

1. Ta'lim psixologiyasi
2. Tarbiya psixologiya
3. O'qituvchi psixologiya

Ta'lim psixologiyasi – ta'lim jarayonida tafakkur, xayol, nutq, xotira va irodaning ahamiyati shu bilan bir qatorda o'quvchining individual sifatleri ya'ni temperamenti, qiziqishlari va xarakteri, shuningdek ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillarini o'rganuvchi pedagogik psixologiyaning bir turi hisoblanadi. Tarbiya psixologiyasi – maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchini rivojlantirish metodlarini yaratish, o'quvchining axloqiy jihatlarini shakllanishiga katta e'tibor qaratish pedagogik psixologiyaning ushbu turining asosiy funksiyasidir. O'qituvchi psixologiyasi bu – pedagogik psixologiyaning o'quvchilarning o'rganish jarayonida vujudga keladigan turli xil muammo va masalalarini aniqlash, ularni tahlil qilish va yechim topish bilan shug'ullanuvchi bo'limi bo'lib, bu bo'limning muhimligi shundaki, bunda o'qituvchi o'quvchilarni ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o'quvchining o'zi o'z ustida ishlashi, xatolarini analiz qilishi orqali bartaraf etishiga yordam beradi.

O'qitish o'quvchining bilim faoliyatini o'stirish bo'lib, ikki tomonlama jarayondir. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ularning yoshi va individual hususiyatlari hisobga olingan holda fanlar asoslari singdiriladi. O'qituvchining faol

faoliyati tufayli o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish maqsadi amalga oshiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish o'quvchining bilish faoliyatidir. Bu faoliyat tufayli o'quvchilarga bilim, iqtidor, malakalar singdiriladi, ular shaxsi shakllantiriladi. O'qish faoliyati tufayli o'quvchilar tabiat va jamiyatga doir bilim asoslari bilan qurollanadilar.

Hozirga vaqtda ta'limning bir qancha shakllari bor. Bular o'quvchining obyektiv olamga faol munosabatida nomoyon bo'ladi va uning o'yin, mehnat va o'qish faoliyatida aks etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchining faoliyati davomida bilim o'zgarib. Aniqlashib boradi. O'quvchining bilim zonasi uning og'zaki va yozma nutqi orqali yuzaga chiqadi.

XULOSA

Pedagogikaning psixologiya bilan uzviy bog'liqligi. O'quvchi va tarbiyalanuvchilarni komil shaxs qilib yetishtirish, ularni bilimli kadr qilib tayyorlashda pedagogik bilim va mahoratning o'zi kamlik qiladi, bunga asos qilib rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiyning pedagogika uchun o'z ahamiyatiga ko'ra barcha fanlardan ko'ra psixologiya barcha fanlar orasida eng birinchi o'rinda turadi, insonni har jihatdan tarbiyalash uchun uni har jihatdan o'rganish darkor deb aytgan so'zlarini olsak bo'ladi. Pedagogika bilan psixologiya o'zaro hamkorligi va aloqasini an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Pedagog o'quvchiga ta'lim va tarbiya berish uchun nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki psixologiya sohasidan ham boxabar bo'lishi talab etiladi. Chunki, tarbiyalanuvchiga uchta yo'nalish bo'yicha ta'sir o'tkaziladi – ongiga, sezgisiga va xulqiga. O'quvchining ongiga ta'sir o'tkazish orqali uning dunyoqarashini, istaklarini va xatti-harakatlarini o'zgartirish, shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Psixologik bilim o'qituvchiga tarbiyalanuvchilarning xarakterini, qiziqish va istaklarini shu bilan bir qatorda bilim qabul qilish darajasi va uslublarini tushunish, va so'ngra ushbu uslublarni optimallashtirish, shularga muvofiq tarzda o'rganuvchini ta'lim va tarbiya jarayoniga yo'naltirishiga hissa qo'shadi. Aynan mana shu sabablarga ko'ra, pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy o'quv yurtlarida psixologiya fani albatta o'qitiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ibragimov X.I., Yoldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. 0_zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. 400 b. 2. Goziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, —Universitetl nashriyoti, 2002. 167 b.
2. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернайка. Science Journal, 7(11).
3. Sadirovich, S. N. (2022). The Significance of Problem Situation Assignments in Teaching the Science of Machine Details. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(8), 30-32.

4. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176.
5. E.G‘oziyev-Umumiy psixologiya,2002.
6. Internet materiallari

